

DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA KREATIV PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Navoiy viloyati Tomdi tumani 3-sonli "Baldirg'an"
Davlat maktabgacha ta'lism tashkiloti o'rta guruh tarbiyachisi
Mirxiyeva Perizat Sermaxanovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlarida (DMTT) kreativ pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ularning bolalar rivojlanishidagi o'rni, samaradorlik darajasi va metodologik asoslari yoritilgan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar, kreativ metodlar va o'qitish jarayonida texnologiyalardan foydalanishning pedagogik ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kreativ pedagogika, innovatsion texnologiyalar, maktabgacha ta'lism, didaktik o'yinlar, interaktiv metodlar, bolalar rivojlanishi.

Kirish Zamoniyy ta'lism tizimi pedagoglardan yangicha yondashuvlar va kreativ texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lism bosqichida bolalarning rivojlanishi uchun kreativ pedagogika muhim o'rinn tutadi. Davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash bolalarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu maqolada kreativ pedagogik texnologiyalarning mohiyati, DMTTda qo'llanilishi, tarbiyachilarining roliga urg'u beriladi hamda natijalar tahlil qilinadi.

Kreativ pedagogika – bu ta'lism jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash, bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ularni mustaqil harakat qilishga yo'naltirish jarayonidir. Bu texnologiya o'quvchilarni an'anaviy ta'lism usullaridan ajratib, ularga mustaqil izlanish va tajriba orttirish imkoniyatini yaratadi.¹ Davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlarida qo'llaniladigan asosiy kreativ texnologiyalar quyidagilardan iborat: Interfaol metodlar: Bolalar bilan birgalikda muammolarni hal qilish, guruhlarda ishlash va babs-munozaralar olib borish. Didaktik o'yin texnologiyalari: Harakatli va stol-ustida o'ynaladigan didaktik o'yinlar yordamida o'rganish jarayonini qiziqarli qilish.² Axborot-kommunikatsion texnologiyalar: Multimedia vositalari, raqamlı resurslar va interaktiv ta'lism dasturlaridan foydalanish. Loyerha texnologiyasi: Bolalarga mustaqil tadqiqot olib borish imkoniyatini yaratish va ijodiy yondashuvlarni qo'llash. Davlat maktabgacha ta'lism

¹ (Rahimov, 2023)

² (Karimova, 2022)

tashkilotlarida kreativ texnologiyalarni qo'llash.DMTTda kreativ texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati.

Kreativ pedagogik texnologiyalarni muktabgacha ta'limda qo'llash quyidagi natijalarga olib keladi:

Bolalarining mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Mustaqil o'rghanish va kuzatish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bolalarни замонавија мухитга мослаштиришга юрдам беради.

Ijtimoiy kompetensiyalar va muloqot qobiliyatlarini shakllantiradi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, kreativ yondashuvlardan foydalangan holda o'qitish ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Masalan, didaktik o'yinlar bolalarning bilimlarni tez va qiziqarli shaklda o'zlashtirishlariga yordam beradi³

DMTT tarbiyachilar kreativ pedagogik texnologiyalarni joriy qilishda muhim rol o'ynaydi. Ularning asosiy vazifalari quyidagilar:Bolalarining qiziqishlarini inobatga olgan holda ta'lim metodlarini ishlab chiqish.Zamonaviy texnologiyalar va o'yin metodlarini uyg'unlashtirish.Har bir bolaning individual xususiyatlariga mos yondashish.Kreativ pedagogik texnologiyalarning natijalari va samaradorligiBolalarining rivojlanishiga ta'siri.Kreativ texnologiyalar yordamida ta'lim olgan bolalar:Mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar.O'z fikrlarini erkin ifoda eta oladilar.Innovatsion g'oyalarni ilgari sura oladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, kreativ pedagogik texnologiyalar qo'llanilgan DMTTlarda ta'lim samaradorligi 30-40% ga oshadi (Jalilova, 2024)⁴. Shu sababli, davlat muktabgacha ta'lim tashkilotlarida bu texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. V.V. Davydov (1996) – Bolalarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati juda katta ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, o'yin jarayonida bola real hayotiy muammolarni hal qilishni o'rganadi va ijodiy tafakkur shakllanadi. J. Bruner (1983) – O'yin orqali o'rgatish usullarini qo'llash bolalar uchun eng samarali metodlardan biri ekanligini aytadi. Uning fikricha, bola o'yin jarayonida dunyoni anglaydi va mustaqil qaror qabul qilishga o'rganadi. Sh.A. Amonov (2023) – Zamonaviy o'quv-tarbiya jarayonida kreativ pedagogik texnologiyalarni joriy qilish bolalarining mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi. N. Jalilova (2024) – Muktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'qitish samaradorligini oshirishga yordam berishini va bolalarining qiziqishini kuchaytirishini qayd etadi. Uning fikricha, interaktiv metodlardan foydalanish bolalarining faol ishtirok etishiga turki bo'ladi. J. Piaget (1951) – O'yin bolalarining kognitiv rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

³(G'ulomova, 2021)

Unga ko‘ra, bolalar o‘yin orqali yangi bilimlarni mustahkamlaydi va mustaqil o‘rganishga o‘tadi. A.V. Petrovskiy (1980) – Didaktik o‘yinlar bolaning ijtimoiylashuvi va muloqot qobiliyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutishini aytadi. Uning fikricha, bolalar guruhiy o‘yinlar orqali jamoaviy muhitga moslashadi va jamiyatga integratsiyalashadi

Xulosa, Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kreativ pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, mustaqil fikrlashga va zamonaviy muhitga moslashishiga katta hissa qo‘sadi. Tarbiyachilar innovatsion metodlarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirib, bolalarga mustahkam bilim va ko‘nikmalar bera oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahimov, N. (2023). Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Karimova, D. (2022). Didaktik o‘yinlarning pedagogik ahamiyati. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
3. G‘ulomova, T. (2021). O‘yin metodikasi va uning bolalar rivojlanishiga ta’siri. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.
4. Jalilova, F. (2024). Maktabgacha ta’limda kreativ pedagogika va innovatsiyalar. Toshkent: Innovatsion ta’lim markazi.